

Yuldasheva F.F

Ilmiy rahbar

To'xtayeva Nilufar Rustam qizi

O'zDJTU katta o'qituvchisi

O'zDJTU talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tilning millat hayotidagi va xalqimizning manaviy dunyosining shakllanishida tutgan beqiyos òrni hamda tilimizning naqadar boyligi va gòzalligi haqida malumot berildi. Til hayotimizning ajralmas qismi haqida gap boradi*

Annotation: *In this article, information was given about the incomparable role of the language in the life of the nation and in the formation of the spiritual world of our people, as well as the richness and beauty of our language. Language is an integral part of our life.*

Аннотация: В данной статье дана информация о несравненной роли языка в жизни нации и в формировании духовного мира нашего народа, а также о богатстве и красоте нашего языка. Язык неотъемлемая часть нашей жизни.

Tayanch so'zlar: *Til, millat, jamiyat, o'quvchi yoshlar.*

Key words: *Language, nation, society, young people.*

Базовые слова: *Язык, нация, общество, студенческая молодежь*

Ona tili – millatning ruhi, uning or-nomusi, ma'naviy qiyofasi, orzu-umidlarning namunasidir. Ona tili millatning birligi va birdamligining timsolidir. U millatni yagona xalq sifatida o'z atrofida birlashtiradi va dunyoda borliqni ta'min etadi. Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo'ladi. Inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrlı bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Hattoki, go'dak ham o'z vatanini, ota-onasini, dunyonı o'z ona tili orqali anglaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida onaning o'rni beqiyos bo'lganidek, insonning hayotda o'z o'rnini topishida, kamolotga erishuviga tilning o'rni ulkan ahamiyatga ega. Shu bois tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Til inson vujudida qon-qoniga singib oqadi. Jamiki, ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining bebaho jozibasi orqali singadi. Inson qalbida ona tiliga nisbatan sof tuyg'u, mehr-muhabbat alanga oladi.

Til har bir millatning ko'zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayotdir. Tilni Onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o'z onasini ko'rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas. Bu fikrimizning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqini keltirishimiz mumkin: "Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga qulqoq tutsin". Deya

ta'kidlaganlari ham bejiz emas. Bugun 8 milliardga yaqin dunyo aholisi 6 mingdan ortiq tilda gaplashadi. Bu tillarning bor-yo'g'i yuzga yaqini davlat tili maqomiga ega. Ular orasida davlat tili sifatida o'zbek tilining ham borligi, albatta, tilimizning nufuzini ko'rsatadi. Faxr bilan ayta olamizki, tug'ilib o'sgan ona-yurtimiz, vatanimiz qanchalik serquyosh, maftunkor bo'lsa, tilimiz ham shunchalik jozibador va go'zaldir. Tilimizda shunday so'z va iboralar borki, ularni har qanday mohir tarjimon ham boshqa biror bir tilga tarjima qila olmaydi. Ko'p misol keltirishning hojati yo'q. O'zbek o'z bolasini qanday erkalashini bir eslang: aylanay, jonio bolam, baraka top, unib-o'sgin, joningdan aylanay bolam... biz bu so'zlarni har kuni bir necha bor yuragimizdan chiqarib aytamiz, biroq bu so'zlarning tarjimasini biror bir lug'atdan topib ko'ring-chi? Til ijtimoiy xodisa ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, u doimo boyib borish xususiyatiga ega. Uning rivojlanib sayqallanib borishida oxirgi paytlarda chet tillarining o'zlashtirili juda katta ro'l o'ynamoqda. Xususan bu borada dunyodagi har uchta odamdan biri tushunadigan ingliz tilining salmog'l yuqori desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Ingliz tilini o'rgatish, o'rganish davlat siyosatining bir qismiga aylanib, bu borada olib borilayotgan amaliy ishlarni kuzatar ekanmiz unib o'sib kelayotgan yosh poliglot avlodning davlatimiz kelajagini nechog'lik o'zgartirib yuborishini tasavvur etish qiyin emas. Nafaqat bog'cha, maktab yoshidagi uka-singillarimiz balki o'zim tengi va o'zimdan katta opa-akalarimning ham bu borada katta qiziqish bilan o'z ustilarida olib borayotgan izlanishlari meni doyim ruhlantirib kelgan. O'z ustimda timmay ishlashimga turki bo'lib, manashu oliy ta'lim dargohning chet tillari yo'nalishi tanlashimga ham sabab bo'lgan desam bo'laveradi. Kelgusida ham o'z ustimda yanada ko'proq ishlab, millatimizning ilmiy, madaniy salohiyatini dunyoga yuz tutishiga o'z izlanishlarim bilan sababchi bo'lishni niyat qilganman. Zero, til millat ko'zgusi! Uning naqadar jozibali va boy ekanligini ko'rsatib berish biz tilchilarining asosi vazifasi deb o'yayman. O'zbek tilining tarixi 3 davrga bo'lib o'rganiladi. 1-davri XI—XIV asrlarda amalda bo'lgan eski turkiy til deb atalgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu-lug'atil-turk" ("Turk tillari devoni"), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim"), asarlari shu tilda yaratilgan. 2-davri XV asrdan XIX asrning ikkinchi yarimigacha qo'llangan til eski o'zbek adabiy tili deb nomlangan hamda bu davrda yashab o'tgan Atoyi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ko'plab ijodkorlarning asarlari shu tilda yaratilgan. XIX asrning ikkinchi yarimidan hozirgi davrgacha ishlatib kelinayotgan til hozirgi o'zbek adabiy tili deb ataladi. O'zbek tilining lug'aviy boyligi 85 mingdan ortiq so'zlardan iborat bo'lib, dunyo aholisi umumiy sonining 42 milliondan ziyodini tashkil etadi. Til – millatning ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muammola vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga xurmat esa o'z navbatida o'zaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlanib qolishi uchun esa bu tillarni qo'llab-quvvatlash zarurdir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxlanib yashaydi

Til millat ko'zgusi unda xalqimizning asrlar silsilasidan, mustabidlik to'fonlaridan sabr-matonat bilan bosib o'tgan hayot yo'li, madaniyati, tarixi, saviyasi, aql-zakovati aks etadi. Tilimizni ham inson uchun muhim omil, aziz va qadrli unsurlar qatori muqaddas bilib,

pokiza va ozoda saqlash, lug'atimiz ko'rki bo'lgan "Vatan", "Ona", "Kitob", "Mustaqillik" kabi so'zlar mohiyatini chuqur anglash, milliy qadriyatlarimiz hamda til boyligimizni bor butunligicha kelajak avlodlarga yetkazib berish barchamizning insoniylik burchimizdir. Agar biz o'z tilimizning ko'rksamligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charog'on bo'ladi va birligimiz musyahkam bo'ladi. Zero rus tarixchisi Shobelev aytganidek "Millatni yo'q qilish uchun u yerga quroq ko'tarib borish shart emas, uning tilini, ma'naviyatini, adabiyotini yo'q qilish kerak, shunda millatning o'zi yo'q bo'lib ketadi" degan fikri naqadar to'g'ri ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 A.Nurmonov, B. Yo'ldoshev. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. –T.: 2001, 11-bet.

2 A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. –T.: 2002, 107-bet.

3 Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti. 1992, 15-bet.

4 Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005, 25-bet.

5 Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005, 59-bet.

Tóxtayeva Nilufar Rustam qizi-O'zbekiston Respublikasi Davlat Jahon tillari universiteti talabasi, Tel:+998906713002

E.mail:toxtayevanilufar069@gmail.com